



**O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA ME'ROJ TUNI TASVIRI:
OBRAZLAR VA AN'ANALAR**

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti talabasi

Axmadjonova Mohlaroyim

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotida Me'roj tuni tasviri, uning shakllanishi, obrazlar tizimi va ma'naviy-estetik an'analari tahlil qilinadi. Me'roj hodisasining Qur'on va hadislardagi talqini bilan bog'liq badiiy syujetlar, shuningdek, Nizomiy, Navoiy, So'fi Olloyor, Mashrab yondashuvi orqali o'zbek adabiyotida shakllangan poetik makon izohlanadi. Maqolada mumtoz asarlardan misollar berilib, har bir misol muallifning maqsadi hamda tasvirning badiiy qudrati asosida sharhlanadi.

Kalit so'zlar. Me'roj, isro, Payg'ambar obrazlari, mumtoz adabiyot, tasavvuf, ilohiy nur, badiiy an'ana, sharq she'riyati, samoviy sayr, ilohiy tajalli.

Kirish. Me'roj — Muhammad (s.a.v.)ning Isro va Me'roj kechasida Quddusga va u yerdan osmonlar sari ko'tarilishi haqidagi muqaddas hodisadir. Sharq adabiyotida bu mavzu IX–XII asrlardan boshlab mustahkam syujet, tasavvufiy timsol va diniy-ma'rifiy motivga aylangan. O'zbek mumtoz adabiyotida me'roj nafaqat diniy voqea, balki ma'naviy poklik, ruhiy yuksalish, ilohiy haqiqatni anglashning ramzi sifatida talqin qilinadi.

Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" asarida Payg'ambar (s.a.v.)ning "Sidratul Muntaho"ga ko'tarilishi ilohiy nur bilan tasvirlanadi, u "nurlar ichra yo'q bo'ldi, lekin Haq unga yaqin bo'ldi". Nizomiy me'rojni inson ruhining Haqqa qo'shilishi sifatida ko'radi. Nur timsoli Me'rojning ilohiy mohiyatini ifodalaydi. "Ul qafasi qolip ila dil qushi, Uchdi jadal jonida nur tobishi", "Ikki jahon yo'liga ko'z tikdilar, Qarshi olib poyiga bosh egdilar", "Kecha qorong'usida bu ittifoq, Misli chaqindek uchar erdi Buroq".



Farididdin Attorning "Ilohiynoma"sida Me'roj safarini "olamlar orasidagi pardalarning ko'tarilishi" deb ta'riflaydi. Attor uchun me'roj tasavvufiy yo'lining eng oliy bosqichi. *"Nabiy mindi Buroqqa, yo'lga burdi, Makondin lomakon sari yurdi"*, *"Kuyib ul jon-u tan, tark etdi o'zni, o'zidan kechdi, Haqqa tikdi ko'zini"*. Attorga kelib me'roj an'anasida endi Haq bilan payg'ambarimiz so'zlashadilar. Asarda Odam, Nuh, Ibrohim, Ismoil, Yaqub, Yusuf, Muso, Dovud, Iso payg'ambarlar ketma-ket Rasuli Akram bilan ko'rishishlari ahamiyatlidir. Ushbu maqom — faqat Payg'ambarimizga xos daraja. Me'rojdan qaytganlarida "to'shaklaridagi o'rni hali issiq edi" deyiladi.

Ahmad Yassaviy o'zining "Me'rojnoma"sida " *"Mundoq maqom hech kimda yo'q.."*, deya ta'riflaydi.

Alisher Navoiy — "Lison ut-tayr". Navoiy me'rojni ruhiy yetakchilik timsoliga aylantiradi. *"Ul kecha kim, ul shahi gardunmaqom, Kim Oni Haq istadi gardunxirom"*. Orada yetmish qavat parda ko'tarilib, bor-yo'q to'siqlar bartaraf bo'lganligi haqida fikr yuritiladi. *"Sa'di Akbar sori chun qildi guzar, topti ul nurin, saodatdin nazar"*, *"Hosil aylab ulcha imkoni murod, Qoytib ul me'rojdin mas'rur - u shod"*. Payg'ambarimiz Allohdan ummatlarining gunohini so'raganliklari Navoiy qalami bilan juda ta'sirli chizilgan.

Xo'jandiy g'azallaridan. *"Ko'nglimni me'roj kechadek ko'tardim vasling sari"*, *"Burroq bo'ldi ishq meni, uchurdim darding sari"* *"Jabroildek hushim qoldi, lekin jon bordi ul dam"*, *"Sidra bo'ldi*

ko'nglim, unda ko'rdim jamolingni." *"Ul me'rojdek shab bila topdim men visolingni."* Xo'jandiy o'z g'azallarida obrazlardan keng foydalanadi.

Boborahim Mashrabning "Me'rojnoma"si ham Ollohga hamd aytish bilan boshlanadi, Haq taolloning to'qson to'qquz ismlaridan bo'lmish vohid va qahhor ismlarini tilga oladi. Mashrab me'roj kechasida Muhammad (s.a.v.)ning Olloh tavhidi, ya'ni yakka-yagonaligi zikrini hamda payg'ambarlarga na't ni bisyor aytganligiga urg'u beradi. Shuningdek, Hazrati rasulullohning izlari malaklar uchun ham to'tiyo bo'lganligini keltiradi. *"To'qqiz falak ustig'a qilib tavsani rohi, lavloki shahanshoh, Tavrotu Zabur ichida maktubdur oti, Furqoni ziyodur"*. Mashrab



tasvirida payg'ambar farishtalar va Iso bilan ham ko'rishadilar. Shoir me'roj bilan bog'liq tafsilotlarni sodda, ravon, xalqona ifodalagan.

So'fi Olloyor "Sabot ul-ojizin" asarida yondashuv axloqiy-tarbiyaviy xarakterga ega. Me'roj ruhiy poklanishning timsoli sifatida ko'rsatiladi. *"Muhammadkim erur afzali asdaq, Erur beshak sha'bi me'roj barhaq", "Haramdin masjidi Aqsog'a nogoh, Olib borganidur oyatda ogoh", "Nechuk hukm aylasa, qodir Xudodir, Charovi chun demak, quldin xatodur", "Habibin har nechuk qilsa sarafroz, Xudoning rahmati ko'pdir, emas oz"*. Payg'ambarimiz me'rojga jism-u tanasi bilan ko'tarilganlari, Haq o'zi bu ishni bir kunda emas, soniyalarda ham qila olishi mumkinligi asarda juda ta'sirli tasvirlanadi. Me'rojga chiqib ketayotib hujralarining eshigini yopganlarida qimirlab qolgan eshik halqasi qaytib tushganlarida ham qimirlab turganligi hodisasi faqat payg'ambarona fazilat va Haqqa xos Quadratni ko'rsatadi. Asarda me'rojga xos yuksakliklar bilan bir qatorda axlokiy-didaktik ruh ham ustuvor.

Xulosa. Me'roj tasvirining an'analarida nur - markazli tasvirdir. Har bir asarda Me'roj tasviri ilohiy nur bilan bog'liq — bu ruhiy poklikning badiiy belgisi. Me'roj ko'pincha: qurbat (yaqinlashuv), fano, baqo, ma'rifat bosqichlari bilan talqin qilinadi. Simvolik obrazlar sifatida me'roj voqeasida uchraydigan Buroq, Jabroil, Arshi a'lo, to'qqiz falak, farishtalar, yetti qavat osmon o'zbek adabiyotida timsoliy ramzlarga aylangan. Ko'plab g'azallarda Me'roj ilohiy sevgi, ishqiy yuksalish, oshiqning oshyonini topish ma'nosida keladi. O'zbek mumtoz adabiyotida me'roj tuni tasviri diniy hikoya bo'lishdan ko'ra kengroq, u ruhiy, axloqiy, falsafiy, tasavvufiy g'oyalarni ifodalovchi badiiy timsoldir. Navoiy, Mashrab, So'fi Olloyor kabi ijodkorlar me'rojni har xil yondashuv orqali talqin qilsalar ham, barchasi uni insonning Haqqa intilishi ramzi sifatida ko'rsatiladi. Bu an'ana adabiyotimizda chuqur o'rin egallab, hozirgacha badiiy-estetik qadriyat sifatida yashab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nizomiy Ganjaviy. Maxzan ul-asror. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
2. Farididdin Attor. Ilohiynoma. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1990.
3. Farididdin Attor. Mantiq ut-tayr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.



4. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. – Toshkent: Movarounnahr, 2012.
5. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
6. Xo'jandiy. Devon. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
7. Boborahim Mashrab. Devon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
8. So'fi Olloyor. Sabot ul-ojizin. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
9. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. (Me'roj tasviri bo'lgan g'azallar mavjud)– Toshkent: Fan, 2000.
10. Isro va Me'roj – Hadislar to'plami. – Toshkent: Movarounnahr nashriyoti, 2015.
11. Qur'on tafsiri – Me'roj voqeasiga oid sura va oyatlar sharhi. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018.